


YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 108 (1707), 2026-yil 29-may, juma



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MADANIYAT, SAN‘AT VA ADABIYOT SOHALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zining ko‘p yillik samarali ilmiy-ijodiy faoliyati, yorqin va betakror iste‘dodi bilan xalqimizning madaniy, badiiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ma‘naviyatimizni boyitish, mamlakatimizda madaniyat, san‘at va adabiyot sohalari rivojlantirish, asriy an‘analimiz, boy merosimizni asrab-avaylash va Yangi O‘zbekistonda jahon miqyosida targ‘ib etishga qo‘shgan munosib hisssasi, jamiyatimizda o‘zaro hamjihatlik, ezigulik va bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlash, yosh iqtidor egalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning mahorat va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, farzandlarimizni ona yurtga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoni bilan

Baytayev Gijov Axmadkulovich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi xonandasi
Gajpov Rustamjan — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

Matchanov Matyakub Sadullayevich — O‘zbekiston kinoaraboblari ijodiy uyushmasi raisi, kinoaktyor

Tillayev Uchkun Turayevich — Ichki ishlar vazirligining madaniyat saroyi badiiy rahbari, aktyor

Xoltadjiyev Abduraxman Akbarovich — O‘zbek milliy maqom san‘ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli artist-sozandasi

Yarashova Ra‘no Sayfidinova — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori

“O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni bilan

Eshboyev Maxammad Temiraliyevich — Jarqo‘rg‘on tumanidagi 5-bolalar musiqa va san‘at maktabi o‘qituvchisi, baxshi, Surxondaryo viloyati

“O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni bilan

Maxmudov Mavzur Mansurovich — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining teatr bezagi rangtasviri kafedrasida dotsenti, rassom

“O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni bilan

Fayzullayev Xikmatulla Rashidovich — Respublika ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi-internatining rassomlik bo‘limi o‘qituvchisi, naqqosh

“O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” faxriy unvoni bilan

Salimova Sharipa — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoira

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan

Mamazoitov Otabek Mamadaliyevich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining Farg‘ona viloyati bo‘linmasi xonandasi

Muminov Tolib Teshayevich — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori

Otajanova Masuda Yuldashevna — Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatri solist-vokalisti

Rasulov Xurshid Numonovich — “Xalqlar do‘stligi” ansambli estrada xonandasi

Raximjdjanova Ilmira Riskaliyevna — “Art house Hamsa” xususiy teatri rahbari, aktrisa

Rizayeva Munisaxon Baxodirovna — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

Xolmuminov Asqar Sayfullayevich — O‘zbek Milliy akademik drama teatri bosh rejissyori

▶ Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MAMLAKATIMIZDA MADANIYAT, SAN‘AT VA ADABIYOT SOHALARINI RIVOJLANTIRISHGA ULKAN HISSA QO‘SHGAN BIR GURUH MARHUM IJODKORLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, ajdodlar xotirasiga munosib ehtirom ko‘rsatish maqsadida o‘zining yorqin iste‘dodi, ko‘p yillik samarali ijodiy faoliyati bilan kelajak avlodlar uchun bebaho meros qoldirgan, Vatanimiz mustaqilligining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimizning ma‘rifiy-badiiy tafakkuri va intellektual salohiyatini yuksaltirish, yurtimizda madaniyat, san‘at va adabiyot sohalari rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shgan, jamiyatimizda ezigulik va mehr-oqibat, vatanparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida unutilmas xizmat qilib, sermazzun hayoti va yuksak insoniy fazilatlar bilan el-yurt xotirasidan chuqur joy egallagan quyidagi marhum ijodkorlar mukofotlansin:

“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan

Abbosov Shuhrat Solixovich — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, kinorejissyor

A‘zamov G‘ani — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, aktyor

Yoqubov Odil — O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi

Sadriyeva Zaynab — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, aktrisa

Umarov Hamza — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, aktyor

Yunusov Obidjon — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, aktyor

“El-yurt hurmati” ordeni bilan

Hoshimov O‘tkir — O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2026-yil 28-may

▶ Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG‘ISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-may kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishi tadbirlarida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etadi.
Sammit kun tartibidan tashkilot

doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Amaliy sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA YOII: GLOBAL IQTISODIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH YANGI BOSQICHDA

29-may kuni O‘zbekiston Prezidenti Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi yig‘ilishida ishtirok etadi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning keyingi yillarda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) tadbirlarida ishtiroki mamlakat tashqi iqtisodiy strategiyasining muhim elementiga aylandi. U amaliy hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va mintaqaviy o‘zaro hamkorlikning barqaror mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan. Jahon iqtisodiyoti transformatsiyasi, logistika yo‘nalishlarining murakkablashuvi va investitsiya resurslari uchun raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda Yevroosiyo yo‘nalishi O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti 2025-yildagi Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi yig‘ilishida ta’kidlaganidek, global bozorlar parchalanishi kuchayib, logistika zanjirlari murakkablashayotgan va investitsiya resurslarini taqsimlashda ustuvorliklar o‘zgarayotgan bugungi sharoitda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari bilan pragmatik va

o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish biz uchun prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Bu pozitsiya O‘zbekistonning Yevroosiyo makonida barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy aloqalarni shakllantirishga intilishini aks ettiradi.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi postsovet makonidagi eng yirik integratsiyaviy birlashmalardan biri hisoblanadi. U Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makon negizida shakllangan. Ittifoq 2015-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat yurita boshladi. Tashkilot to‘g‘risidagi shartnoma Belarus, Qozog‘iston va Rossiya tomonidan imzolangan bo‘lib, keyinchalik Armaniston va Qirg‘iziston ham unga qo‘shildi.

▶ Davomi 2-betda



Insoniyatni kim va qanday boqadi?

Oziq-ovqat xavfsizligi haqida gap ketganda ko‘pchilikning xayoliga, avvalo, non, un, guruch, kartoshka yoki bozordagi narxlar keladi. Albatta, bular juda muhim. Ammo XXI asrda bu tushuncha ancha kengaydi. Bugun oziq-ovqat xavfsizligi faqat qorin to‘qligi emas. Bu inson salomatligi, bolalarning to‘g‘ri o‘sishi, onalarning sog‘lom hayoti, dehqon va fermer daromadi, sav tejamkorligi, tuproq unumdorligi, mahsulot sifati, qayta ishlash, eksport, raqamlashtirish va kelajak avlod oldidagi mas‘uliyatdir.

Oddiy qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligi dalada boshlanib, oila dasturxonida yakunlanadi. Dalada qanday urug‘ ekiladi, u qancha suv talab qiladi, tuproqqa ta’siri qanday, hosil qanday saqlanadi, mahsulot bolalarimiz salomatligi uchun qanchalik muhim — bularning barchasi bugunning strategik savollari. Bu masalaga shaxsan men ikki xil qarashim zarur: vazir sifatida — amaliyot, islohot va dehqonning kundalik muammolari nuqtayi nazaridan; olim sifatida esa — dunyo ilmi qaysi yo‘nalishga ketayotgani, 2050-yil ssenariylari nimani ko‘rsatayotgani jihatidan.

Ushbu ikki qarash birlashganda kelib chiqqan xulosa: kelajak oziq-ovqat xavfsizligi faqat ko‘proq mahsulot yetishtirish emas, balki sog‘lom, adolati, suvtejamkor, ilgama tayangan va insoniylik bilan yo‘g‘rilgan oziq-ovqat tizimini qurishdir. Keling, shularga birma-bir, kelajak nuqtayi nazaridan to‘xtalaylik.

Insoniyatni nima kutmoqda?

Dunyo aholisi bugun 8 milliarddan oshdi. 2050-yilga borib esa 9 milliarddan ziyod bo‘lishi kutilmoqda. Demak, kelajakda

dasturxon atrofida o‘tiradigan odamlar soni ortib boradi. Ammo ularni boqadigan yer, suv va tabiiy resurslar cheksiz emas.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning “2050-yilda dunyoni qanday boqamiz?” mavzusidagi tahlillarida keltirilishicha, “2050-yilda 9 milliarddan ortiq odamni boqish uchun jahon oziq-ovqat ishlab chiqarishini 2005-2007-yillarga nisbatan taxminan 70 foizga oshirish zarur bo‘ladi”. Buning uchun esa rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish deyarli ikki barobar oshishi kerak. Lekin FAO yana bir muhim haqiqatni ta’kidlaydi: “dunyo texnik jihatdan yetarli oziq-ovqat ishlab chiqarishi mumkin, ammo bu ochlik avtomatik ravishda yo‘qoladi degani emas”. Chunki ochlik ko‘p hollarda mahsulot yo‘qligidan emas, balki odamlarning oziq-ovqatga iqtisodiy va ijtimoiy kirish imkoniyati cheklanganidan kelib chiqadi.

▶ Davomi 3-betda

JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI QUDRATLI KUCH

Qurbon hayiti bayramining asl mohiyati insonlarga mehr-muruvvat, xayr-saxovat va xush kayfiyat ulashishdadir. Ushbu bayram shukronalik, bag‘rikenglik va inson qadrini ulug‘lash kabi ezgu tushunchalarni o‘zida mujassam etadi.



Ushbu ulug‘ ayyomda ehtiyojmand oilalarning kamu ko‘stini to‘ldirish, qalbi yarim, jismoniy imkoniyati cheklangan yoki xasta va nuroniylarga xayr-saxovat ko‘rsatish, holidan xabar olish xalqimizga xos azaliy qadriyatlar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ehtiyojmand oilalar, ayniqsa, muborak Ramazon va Qurbon hayiti kunlarida ko‘makka muhtoj bemorlar, nuroniylarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, birinchi navbatda, yurtdoshlarimiz uyi, qalbiga bayram

shukuhini olib kirish uchun turli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmogda.

Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 21-maydagi “Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida ayni yo‘nalishga doir qator vazifalar o‘rin olgan. Hujjatda belgilangan vazifalardan ushbu masala davlat siyosati darajasida ekani hamda diniy qadriyatlar bilan yangi O‘zbekistonning konstitutsion

darajada mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyili bir nuqtada tutashganini ko‘rish mumkin.

Qaror bilan og‘ir va nogironlikka olib keluvchi kasalliklarga chalingan 10 ming bolada jarrohlik amaliyotini o‘tkazish, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo‘yilgan 2,3 ming bemorni davolash, kamida 350 bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotini amalga oshirish belgilangan.

▶ Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

MADANIYAT, SAN'AT VA ADABIYOT SOHALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHNI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Boshlanishi 1-betda

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan

Abdurasulov Xaytimmat — O'zbekiston Teatr arboblari uyushmasi a'zosi, dramaturg

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni bilan

Artikova Nailya Aleksandrovna — O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Bulbulcha" bolalar ansambli badiiy rahbari

Davlatov Olim Davlatovich — Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori, adabiyotshunos

Yernazarov Beknazar — Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi, yozuvchi

Mirzayeva Zebo Boymanovna — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira

Ergashev Botirjon Yuldashevich — Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori, shoir

"Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan

Kamilov Erkinboy — O'zbek Milliy akademik drama teatri aktori

Sagdiyev Yodgar Xabibovich — O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori, aktyor

"El-yurt hurmati" ordeni bilan

A'zamov Erkin Normamatovich — "Tafakkur" jurnali bosh muharriri, yozuvchi

Musakov Zulfaxar Djalalovich — "O'zbekfilm" kinokonsemi" davlat muassasasi postanovkachi rejissyori

Xalilova Mavluda Boltayevna (Matluba Dadaboyeva) — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining maqom xonandali kafedrasini professori, maqom xonandasi

"Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan

Abdullayeva Raisa Uraimovna — Jizzax viloyati musiqali drama teatri artisti

Azimov Usmonkul — O'zbek Milliy akademik drama teatri adabiy bo'limi mudiri, shoir

Atabayev Davronbek Djumanazarovich — Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri direktori

Bakayev Ubaydullo Amonovich — Buxoro viloyati musiqali drama teatri rejissyori

Muxamedkarimov Bexzad Abdulazizovich — O'zbek Milliy akademik drama teatri aktori

Nuriddinov Xayrulla Bokidjonovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisining birinchi o'rinbosari

Raimdjanov Anvar Xusainovich — O'zbekiston davlat filarmoniyasining "O'zbekiston solistlari" kamer orkestri badiiy rahbari

Umarbekov Djavlyat Yusupovich — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining dastgohli rangtasvir kafedrasini professori, rassom

Umarova Salima Baxronovna — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira, Navoiy viloyati

Abdullayeva Muxabbat Xodjialimovna — O'zbekiston davlat drama teatri artisti

Abdurashidov Abdalaxat — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli sozandasi

Azizbayev Saloxiddin Sadullayevich — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining maqom cholg'u ijrochiligi kafedrasini professori, xonanda

Anriddinov Shaxobiddin Najmiddinovich — O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, qashqar usta, Samarqand viloyati

Atadjanov Azamat Bekchanovich — Urganch maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori, xonanda, Xorazm viloyati

Axmedov Jaxongir Adilxojayevich — Bolalar kontentini rivojlantirish markazi direktori, kinorejissor

Ahmed Jasim Abbas Al-Zubaidi — O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining arab tili tarixini nazariyasi va amaliyoti kafedrasini katta o'qituvchisi

Bekchanova Mexrijon Gulamovna — Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri solist-vokalisti

Djurayev Ashurali Achilovich — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Islamov Elmurat Muxotovich — O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Bek" milliy doirachilar guruhi badiiy rahbari

Kadirov Utkur Sakidjanovich — "Sato" guruhi a'zosi, g'ijjak sozandasi

Karimova Roza Mashurovna — O'zbekiston davlat satira teatri faxriy artisti

Matyakov Ostanazar — O'zbekiston davlat konservatoriyasining o'zbek musiqasi tarixi kafedrasini dotsenti, musiqashunos

Muhammad Abbas Xan — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faxriy a'zosi, yozuvchi va publisist

Nasirov Elyor Rasulevich — O'zbekiston davlat drama teatri yetakchi sahna ustasi, aktyor

Nomozov Maxmud Almatovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Norkobilov Normurat — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Raxmatullayeva Zamira Sultonovna — O'zbekiston davlat konservatoriyasining musiqiy pedagogika kafedrasini dotsenti, qashqar rubobi sozandasi

Sadikov Toxir Baxramdjanovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Tolipov Shuxrat Mannapovich — O'zbekiston davlat filarmoniyasining Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri badiiy rahbari

Xojiyev Tolib Tojiyevich — O'zbekiston davlat yoshlar teatri yetakchi sahna ustasi, aktyor

Shadmanov Shoxrux Uktamovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Yuldashev Abdikayum Turgunbayevich — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Yunusova Sayyora Abdullajanovna — O'zbek Milliy akademik drama teatri aktori

"Do'stlik" ordeni bilan

Abdullayev Yevgeniy Viktorovich — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi, shoir va tarjimon

Abduraximov Kaxraman — O'zbek Milliy akademik drama teatri aktori

Abidov Shorustam Fayzullayevich — O'zbekiston davlat filarmoniyasini rejissyori

Aliqulov Muradilla Ximmatovich — Nishon tumani madaniyat bo'limining

baxshichilik to'garagi rahbari, baxshi, Qashqadaryo viloyati

Alimaxsumov Kamoliddin Moxirovich — maqom xonandasi

Allabergenov Ulmas Xudayarovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Apuxtin Viktor Olegovich — O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, grafik rassom, Toshkent shahri

Argonov Shaxriyori A'lojevich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Baymurotov Ashurkul — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir, Toshkent viloyati

Boymurodov Sherzod Anvarovich — O'zbekiston davlat yoshlar teatri aktori

Vaxrusheva Nina Semenovna — Bo'stonliq tumani madaniyat bo'limining "Qizil chinigul" faxriy xor jamoasi badiiy rahbari, Toshkent viloyati

Ganiyev Anvarjon Jumabayevich — O'zbekiston davlat filarmoniyasini xonandasi

Djumayev Aleksandr Babaniyazovich — Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining yetakchi ilmiy xodimi

Jololova Xolisxon Yangiboyevna — Buloqboshi tumani madaniyat bo'limi mudiri, Andijon viloyati

Jumanov Gaybulla Ibragimovich — O'zbekiston davlat drama teatri artisti

Zakirova Barno Abzalovna — O'zbekiston davlat akademik rus drama teatri trupa mudiri

Isakdjanov Xasan — P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabining amaliy grafika fani o'qituvchisi

Ismiyaminova Tursinay Sattarovna — Olmaliq shahar madaniyat bo'limining "Navbahor" folklor-etnografik xalq jamoasi rahbari, Toshkent viloyati

Kadirov Ulugbek Nasirovich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, aktyor

Komilov Ostanakul Odilovich — Qashqadaryo viloyati ko'zi ojizlar kutubxonasi direktori

Matanov Ikram Yuldashevich — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ancambli artist-cozandasi

Mamajonov Baxodir Akramovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasining Farg'ona viloyati bo'limi xonandasi

Mignarev Abdullayevich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, kinoaktyor

Muratov Rustam Saydimalikovich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, kinooperator

Narqazaqov Maxmud Mamadaliyevich — Forish tumani madaniyat bo'limi mudiri, Jizzax viloyati

Nasirova Buritosh — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, publisist, Qashqadaryo viloyati

Ochilov Utkirjon Umarmulovich — Kattaqo'rg'on shahar drama teatri aktori, Samarqand viloyati

Raximov Egamberdi Shamatovich — O'zbekiston davlat drama teatri artisti

Raxmanova Gulnora — erkin ijodkor, rassom

Raxmonov Damir Uktamovich — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti

Rejamatova Nilufar Ilxamovna — Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining musiqiy ta'lim kafedrasini dotsenti, san'atshunos

Sidikov Xabijon — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi, Andijon viloyati

Tashmetov Baltabay Namanovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi badiiy so'z ustasi, qiziqchi

Uzakov Alisher Muxamadjanovich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, kinoaktyor

Umarov Mamur Botashikovich — O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining san'atshunoslik va madaniyatshunoslik kafedrasini professori

Fayzullayev Anvar Raxmatillayevich — O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasini o'qituvchisi

Xakimov Nabijon — Mirzaobod tumani madaniyat bo'limining "Dilrabo" bolalar ashula va raqs ansambli musiqa rahbari, Sirdaryo viloyati

Xasanov Zarif Olimovich — "Silk Route Marionettes" teatr-studiyasi rejissyori

Xodjamberdiyeva Zamiraxon — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira

Xudayberdiyev Mansur — Kattaqo'rg'on tumani madaniyat bo'limining "Zarafshon" ashula va raqs xalq dastasi badiiy rahbari, Samarqand viloyati

Shamshiyev Valijon Adaxamovich — badiiy so'z ustasi, qiziqchi

Sherzodanov Ruslan Radikovich — O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri bosh rejissyori

Ergashova Moxira Turpovna — Kasbi tumanidagi madaniyat bo'limining "Kulol shodasi" folklor-etnografik xalq ansambli badiiy rahbari, Qashqadaryo viloyati

Yusupova Gulchexra Urmanovna — faxriy baletmeyster

II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

Ziyayeva Malikaxon — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining maqom cholg'u ijrochiligi kafedrasini professori, dutor cholg'u ijrochisi

Tulyaxodjayeva Muxabbat Turabovna — O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining san'atshunoslik va madaniyatshunoslik kafedrasini professori

"Kelajak bunyodkori" medali bilan

Ibragimov Shahriyor Shavkat o'g'li — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

Mamarajabova Navro'za Rustam qizi — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti

Meliboyev Elyor Zuxriddin o'g'li — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

Muxtarov Lazizbek Ulug'bek o'g'li — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli xonandasi

Siradjev Shohruh Toxir o'g'li — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi ovoz operatori, prodyuser, didjey

Toreyeva Janar Kutlimurat qizi — Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat akademik musiqali teatri balet artisti

Xamdamon Shoxrux Baxodirjon o'g'li — Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji o'qituvchisi, aktyor

Ergashev Shohruhbek Abdullajon o'g'li — "O'zbekkonsert" davlat muassasasi xonandasi

"Shuhrat" medali bilan

Abduazimov Azizjon Xasanboy o'g'li — Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri artist-maqomchisi, Farg'ona viloyati

Avezov Rauf Rasulovich — O'zbekiston davlat filarmoniyasining Buxoro viloyati bo'limmasi direktori

Agzamov Duniyor Baxtiyorovich — Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining musiqiy ovoz rejissyorligi kafedrasini katta o'qituvchisi

Azizov Shuxrat Mengziyayevich — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

Atakulova Dilfuza Nurullayevna — O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Lazgi" ansambli baletmeysteri

Axmedova Fazilat Botirovna — O'zbekiston davlat filarmoniyasini solist-vokalisti

Babayev Xojayaz Djumaniyazovich — Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasining Nukus mintaqaviy restavratsiya markazi direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Baybosinova Seniya Sarsenbayevna — Qoraqalpog'iston Respublikasi a'zosi va madaniyat davlat muzeyi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

Varisov Saidakbar Asrarovich — Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining janubiy hududlar bo'yicha loyihalash bo'limi boshlig'i

Gaibnazarova Nigora Anorbayevna — Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori

Ibragimov Jaxongir Baxtiyorovich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, postanovkachi operator

Ibragimova Gulchexra Shaxobidinovna — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira

Izentayeva Gulbaxar Jollibayevna — I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Kadirov Maxamad Pulatovich — Namangon viloyati madaniy meros boshqarmasi boshlig'i

Kalmuratov Nurlan Yusupovich — "Ayyulash" qoraqalpog' davlat milliy folklor ansambli raqqosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Karimov Abduvoxid Bozorovich — Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi, kulol va rassom, Toshkent shahri

Qo'qanov Abdullalil Xolmatovich — "O'zbekkonsert" davlat muassasasining Farg'ona viloyati bo'limi xonandasi

Quldoshov Bayramali — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Qurbonaliyev Boburjon Dilshod o'g'li — O'zbekiston davlat filarmoniyasining Botir Zokirov nomidagi milliy estrada simfonik orkestri bosh dirijyori

Lutfullayev Samidxon Ismoilovich — O'zbekiston davlat drama teatri artisti

Mavlonkulov Muxammad-Rashod Xojikul o'g'li — "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi direktori, Farg'ona viloyati

Mamadaliyeva Muqaddas — Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri solist-vokalisti

Mamadiyev Baxodir Bobojonovich — Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori

Matlubova Sanobar Buzrukovna — Abdulla Qahhor uy-muzeyi direktori

Maxammadiyev Asad Sherzodovich — Toshkent shahridagi "Iosis" xususiy korxonasi ommaviy tadbirlar ovoz rejissyori va operatori

Moydinov Ergashboy — Yangiyo'l tumani madaniyat bo'limining "Marjona" dorbozlar jamoasi rejissyori, Toshkent viloyati

Muxiddinov Akmal Nusratilloevich — Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi, yog'och o'yimchisi, Buxoro viloyati

Najmiddinov Baxtiyorjon Usmonaliyevich — Buxoro viloyati musiqali drama teatri artisti

Odilova Gulnora Klichevna — Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi, kashtachi, Qashqadaryo viloyati

Pulatov Miradil Mirsagatovich — Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining shimoliy-g'arbiy hududlar bo'yicha loyihalash bo'limi boshlig'i

Rasulov Ixtiyorjon Maxmudovich — Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori

Rahimov Shohrux Alisher o'g'li — Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi, kulol, Toshkent shahri

Reymov Sultamurat Yedenbayevich — O'zbekiston davlat filarmoniyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limmasi xalq cholg'ulari orkestri dirijyori

Ruzimov Ziyodjon Xakimjanovich — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli musiqa rahbari

Rustamov Ulug'bek Boxadirovich — O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri aktori

Saidov Muminjon Munir o'g'li — Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori, Samarqand viloyati

Sambayev Masud Kimovich — "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi direktori, Samarqand viloyati

Sanakulov Shuxrat Abdulkarimovich — Samarqand viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori

Tajiyeva Roxat Zakirovna — Xorazm viloyati ko'zi ojizlar kutubxonasi direktorining o'rinbosari

Turanov Hamdamjon Mansurovich — "Talent shou" va "Ovoz" loyihalari prodyuseri

Umarov Almas Xabibovich — Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi bo'lim boshlig'i

Umarov Nodirbek To'liqinovich — erkin ijodkor, bastakor

Usmanov Sirojiddin Maxamadaliyevich — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasini o'qituvchisi, qonun cholg'usi sozandasi

Fayziyev Elbek Nurullayevich — O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi, aktyor

Fayzullayev Mirshakar Shuhratovich — erkin ijodkor, teleboshlovchi

Xayitov Faxriddin Xudoyqulovich — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

Xalilov Jamshid Nabiyeich — "Buxoro" davlat muzey-qo'riqxonasi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, Buxoro viloyati

Xolov Zoxidjon Ashirmat o'g'li — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo'limi bosh mutaxassisi, shoir

Xolova Nargis Abduraxmanovna — Temuriylar tarixi davlat muzeyining fondlar va arxiv bo'limi mudiri

Yuldashev Zafar Abdumannapovich — Bolalar kontentini rivojlantirish markazi direktorining o'rinbosari

Yusupov Ilxomiddin Sharofidinovich — Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasining Shahrisabz mintaqaviy restavratsiya markazi direktori

Holiqov Shokir Qo'ziyov o'g'li — S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya institutining Toshkent shahridagi filiali o'qituvchisi, ssenarist va kinorejissor

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2026-yil 28-may

SH.MIRZIYOYEV

O'ZBEKISTON VA YOII: GLOBAL IQTISODIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH YANGI BOSQICHDA

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligining zamonaviy bosqichi 2019-yildan boshlanadi. Shu yili O'zbekiston Ittifoq bilan hamkorlikni kengaytirish masalalarini kompleks tarzda o'rganishga kirishdi. 2020-yil 11-dekabrda O'zbekiston rasman YOII huzurida kuzatuv



2050-YIL DASTURXONI

Insoniyatni kim va qanday boqadi?

Boshlanishi 1-betda

Bu — biz uchun ham katta saboq. Demak, 2050-yil uchun savol faqat “Qancha yetishtirish kerak?” emas, “Yetishtirilgan mahsulot har bir oilaga yetib boradimi, uning narxi arzonmi, sifatimi, xavfsizmi, u bola va ona salomatligiga xizmat qiladimi, bu mahsulotni yetishtirishda suv va tuproq asraldimi?” bo'lishi kerak.

Jahonda o'nlab yil davomida oziq-ovqat xavfsizligini o'rganib kelayotgan olimlar — fransiyalik Bernard Hyuber, amerikalik Mark Rozgrant, niderlandiyalik Van Boyekel hamda perulik Rodomiro Ortiz oziq-ovqat kelajagi bo'yicha ilmiy ssenariylarda ikki yo'lni ko'rsatadi. **Birinchisi — “Agrimonde GO” bo'lib, iqtisodiy o'sish va iste'molni hamma narsadan ustun qo'yadigan yo'l.** Bu yo'lda kaloriya ko'payadi, ya'ni aholi jon boshiga sutkali kaloriya miqdori o'rtacha 3590 kkalgacha oshadi. Go'sht va resurs talab qiladigan mahsulotlar iste'moli ortadi, ammo suv, tuproq va tabiatga bosim kuchayadi. **Ikkinchisi — “Agrimonde 1”, ya'ni barqaror rivojlanish, oqilona va adolati yo'l.** Unda har bir odamga kaloriya kuniga 3000 kkalga yetarli bo'lishi, adolati sog'lom, ekologik jihatdan maqbul oziq-ovqat ta'minoti, o'simlik mahsulotlari ulushining ortishi, suv va yerni asrash, qishloq aholisi daromadini ko'paytirish maqsad qilinadi.

Xo'sh, O'zbekiston qaysi yo'lni tanlamog'unda? So'nggi yillardagi islohotlar, suv tejoychi texnologiyalarga e'tibor, paxta maydonlarini qisqartirib hosildorlikni oshirish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, baliqchilik, qayta ishlash va raqamlashtirishga berilgan ustuvorlik savolga **“O'zbekiston kelajagini faqat miqdorda emas, sifat, samaradorlik va inson manfaatida ko'rmog'unda”,** degan lo'nda javobini bermog'unda.

FAO sabog'i: bu faqat hosil emas, daromadga ham bog'liq

Shu o'rinda FAOning yana bir muhim xulosasini keltirish joiz: **“Qishloq xo'jaligidagi o'sish kambag'allik va ochlikni kamaytirishda juda kuchli ta'sirga ega”.** Xalqaro tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy o'sish kambag'allar uchun boshqa sohalardagi o'sishga nisbatan kamida ikki barobar samarali bo'lishi mumkin. Bu tabiiy hol: rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'al aholining katta qismi qishloq joylarda yashaydi va ularning daromadi bevosita yer, chorva, suv, mehnat va agrar xizmatlar bilan bog'liq. Shu nuqtaiy nazaridan, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ombordagi don yoki bozordagi sabzavotdan iborat emas. Bu qishloqda ish o'rni, fermerning daromadi, dehqonning bozorga chiqishi, ayollar va yoshlarning yer, kredit, bilim hamda texnologiyaga kirish imkoniyati hamdir.

FAO, shuningdek, kelajakda oziq-ovqat narxlarini o'zgaruvchanligi ortishi, iqlim, energiya bozori, savdo va xomashyo narxlaridagi tebranshlar qishloq xo'jaligiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Demak, kelajak qishloq xo'jaligi faqat ko'p mahsulot yetishtiradigan emas, balki tashqi zarbalarga chidamli, risklarni boshqara oladigan va oddiy dehqonni ham himoya qiladigan tizim bo'lishi kerak.

Yangi xavflar: mikroplastik, iqlim va antibiotiklar

Bugun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi ta'sir qilyotgan xavflar avvalgidan ancha murakkab. Ular faqat qurg'oqchilik yoki hali kamayishi emas. Olimlar so'nggi yillarda uchta yangi jiddiy xavfga alohida e'tibor qaratmoqda.

Birinchisi — mikroplastik. Plastik chiqindilarning ko'zga ko'rinmas mayda zarralari endi faqat shahar tozaligi muammosi emas. Ular tuproqqa, suvga, o'simliklarga, baliqchilikka va butun oziq-ovqat zanjiriga kirib bormog'unda. Ayrim ilmiy baholashlarda mikroplastiklar o'simlik va suv o'tlarida fotosintez jarayonini pasaytirishi, bu esa global miqyosda asosiy ekinlar hosiligiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi ta'kidlanadi. 2025-yilda tayyorlangan xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, plastik chiqindilarning mikroplastik zarrasi yer yuzasidagi o'simliklar, baliqlar va suv o'tlarining fotosintezini 12 foizgacha kamaytiraydi. Ya'ni oddiy tilda aytganda, bu ekinlar har 10 gektar daladan, toza dalaga nisbatan 1 gektar hosil kamroq olinadi degani. Global miqyosda bu yiliga 110-360 million tonna asosiy ekinlar yo'qotilishini anglatadi.

Ikkinchisi — iqlim o'zgarishi. Qurg'oqchilik, issiqlik to'liqlari, suv tanqisligi va haddan tashqari ko'p ob-havo hodisalariga bog'liq do'y, sholi, makkajo'xori, sabzavot va chorvachilikka ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoydagi va Hindistondagi “non savatlar”da bug'doy hosili 2080-yillarga borib, 13 foiz tushishi prognoz qilinmoqda. Bu xavfga javob berish uchun donli ekinlarning yangi navlari ustida ishlamoqda, lekin ularidan kutilayotgan hosildorlik, agar hozirdan investitsiya qilinmasa, 2100-yilga borib, yo'qotilishlari 17-18 foizgacha qisqartirish imkonini beradi, xolos. O'zbekiston uchun bu masala yanada dolzarb: mamlakatimiz quruq iqlim mintaqasida joylashgan, suv resurslari cheklangan, aholi soni va oziq-ovqatga talab esa ortib bormog'unda.

Uchinchisi — antibiotiklarga chidamlilik. 2025-yilgi tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, Sharqiy O'rta dengiz mintaqasida antibiotiklarga chidamli bakteriyalardan o'lim 2021-yilda 380 ming kishiga yetgan, 2050-yilda esa 752 mingdan oshishi kutilmoqda. Bu faqat tibbiyot muammosi emas. Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikda antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish inson salomatligiga qaytib keladigan xavfdir. Bu butun dunyo uchun “One Health” — inson, hayvon va atrof-muhit salomatligini birgalikda ko'rish zaruratini eslatadi.



Ibrohim ABDURAHMONOV, qishloq xo'jaligi vaziri, akademik

Ushbu xavflar O'zbekiston uchun ham begona emas. Demak, kelajakda oziq-ovqat xavfsizligiga faqat agronom, fermer yoki iqtisodchi emas, biolog, ekolog, veterinar, shifokor, muhandis, raqamli texnologiya mutaxassisi va pedagog ham birdek javob beradi.

Dunyo tajribasi bizga nimani o'rgatmoqda?

2050-yil oziq-ovqat xavfsizligi haqida gapirganda, dunyo tajribasiga qarash juda muhim. Chunki bugun har bir mamlakat o'z dalasida ishlayotgandek ko'rinsa-da, aslida, barcha mamlakat bitta umumiy savolga javob izlamog'unda: cheklangan suv, cheklangan yer va o'zgarib borayotgan iqlim sharoitida insonni qanday sog'lom boqish mumkin?

FAO hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilgacha global ziroatchilik o'sishining asosiy qismi yangi yer ochishdan emas, hosildorlikni oshirish va bir yilda ko'prog'ini hosil olish, ya'ni intensivlikni kuchaytirish hisobiga kelishi kerak. Boshqacha aytganda, kelajakda yerni kengaytirishdan ko'ra har bir gektardan ilm, texnologiya va oqilona boshqaruv orqali ko'prog'ini sifatli mahsulot olish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu O'zbekiston uchun juda mos yo'nalish. Chunki bizda yer va suv cheklangan. Demak, kelajak “ko'prog'ini” emas, “ko'prog'ini bilim”, “ko'prog'ini samara”, “ko'prog'ini qo'shilgan qiymat” davri bo'ladi.

Yevropa va Xitoy bozorlari esa boshqa saboqni ko'rsatmoqda. Kelajakda mahsulotni faqat yetishtirish yetarli emas, uning “tarixi” ham toza bo'lishi kerak. Masalan, anomi Xitoyga yoki quritilgan mahsulotni Yevropa bozoriga chiqarish uchun bog' qayd etilishi, zararkunandalar nazorati, pestitsid qoldiqlari, fitosanitar sertifikat va qadoqlash tablablari to'liq bajarilishi lozim. Global GAP kabi standartlar mahsulotning nafaqat sifatini, balki xavfsizligi, izchilligi va ishonchligini ham isbotlaydi. Demak, O'zbekiston eksportda “tonna”dan “isbotlangan sifat” bosqichiga o'tishi kerak. Dunyoda “aqli ferna”, “aniq dehqonchilik”, “raqamli suv hisobi”, “issixonada sensor boshqaruv” kabi tushunchalar oddiy amaliyotga aylanmoqda. Sensorlar suv va namlikni o'lchaydi, dronlar ekin holatini kuzatadi, sun'iy intellekt hosilni prognoz qiladi, laboratoriyalar mahsulot xavfsizligini tasdiqlaydi. O'zbekistonda Agroxizmatlar markazlari, raqamli platformalar va xalqaro qishloq xo'jaligi ta'limi tizimi shu global jarayonning milliy poydevotidir.

Yana bir muhim saboq — hosilni yo'qotmaslik. Dunyoda ko'p mamlakatlar mahsulotni ko'p yetishtirsa ham saqlash, sovitish, qadoqlash va qayta ishlash zaif bo'lgani uchun katta yo'qotishlarga duch keladi. Oddiy qilib aytganda, 2050-yilda g'olib mamlakatlar faqat ko'p yetishtirgan emas, balki mahsulotni isrof qilmagan, qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratgan davlatlar bo'ladi.

Geosiyosiy xatarlar va O'zbekiston tanlagan yo'l

Bugungi dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi faqat agrar masala emas, balki geosiyosiy barqarorlik masalasiga ham aylandi. Urushlar, savdo yo'laridagi uzilishlar, yonilg'i va o'g'it narxining keskin o'zgarishi, eksport cheklavi, portlar va logistika yo'nalishlaridagi xavflar bir mamlakatdagi dalaning hosiliga boshqa qit'adagi siyosiy voqealar ham ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shunday sharoitda davlatimiz rahbari tomonidan qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan chuqur o'yilgan islohotlarning mohiyati yanada yaqqol ko'rindi. Davlat buyurtmasi va eski ma'muriy tizimlardan bosqichma-bosqich voz kechish, fermer va dehqonga erkinlik berish, g'alla va paxtada bozor mexanizmlarini joriy etish, suv tejoychi texnologiyalarni kengaytirish, yerdan foydalanishda shaffoflikni oshirish, dehqon xo'jaliklariga faqat yo'qotilishni kamaytirish, dehqon xo'jaliklariga yo'qotilishni kamaytirish, fermer daromadini oshirish, fermerlar uchun yer imkoniyatini kengaytirish yangi paxtachilik siyosatining asosiy mazmuniga aylanmoqda.

Shu bilan birga, paxtadagi yangi intensiv agroteknologiyalar iqtisodiy jihatdan ham samarali ekan ko'rinmoqda. Tadqiqotda 76 santimetr intensiv ekish sxemasi, tomchilatib sug'orish va fertigatsiya (mineral o'g'it yoki zarur moddalar bilan sug'orish) orqali gektar boshiga mahsulot yetishtirish xarajati sezilarli kamayishi, suv sarfi 40 foizgacha qisqarishi va mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligi oshishi qayd etilgan. Demak, ilmiy yondashuv fermerga ham, tabiatga ham, milliy iqtisodiyotga ham foyda beradi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi uchun ham bevosita muhim. Chunki paxtada “ko'prog'ini” kamroq

Bugungi geosiyosiy vaziyat bizga bir haqiqatni o'rgatmoqda: har bir davlat o'z dasturxonining asosiy qismini o'zi ta'minlay olishi bilan birga dunyo bozori bilan oqilona bog'langan bo'lishi kerak. O'zbekistonning yo'li ham shu: ichki bozorni barqaror ta'minlash, fermer daromadini oshirish, eksportni kengaytirish, suv va tuproqni asrash, ilm-fan va texnologiya orqali qo'shilgan qiymat yaratish. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **har bir muammoni imkoniyatga aylantirish mumkin, qachonki ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalardan to'g'ri foydalansak.** Bugungi oziq-ovqat siyosati aynan shu tamoyilga taylanmoqda: geosiyosiy xatarlarga javob izolyatsiya emas, balki kuchli ichki ishlab chiqarish, diversifikatsiya, ilgama asoslangan agrar boshqaruv, raqamlashtirish, suv tejamlorligi va insonga yo'naltirilgan islohotlardir.

“Oq oltin” dan rang-barang dasturxoniga

O'zbekiston qishloq xo'jaligi uzoq yillar “oq oltin”, ya'ni paxta bilan tanildi. Bu ekin mamlakat iqtisodiyoti, qishloq hayoti va suv tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo bir ekinga ortiqcha bog'lanishning oqibatlarini ham tarix ko'rsatdi: suvga bosim, tuproq sho'rlanishi, Orol fojiasi, oziq-ovqat ekinlariga yetarli e'tibor berilmagan davrlar bunga misol.

Joriy yilda Xalqaro savdo kengashi (ITC) chop etgan “Beyond the White Gold” kitobida yangi O'zbekistondagi bugungi tarixiy burilish yaxshi fodalangan: O'zbekiston paxtaga tort xitioslashtirish tizimidan diversifikatsiyalashgan, bozorga yo'naltirilgan, innovatsion va barqaror agrar tizimga o'tmog'unda. Eng muhimi, bu faqat ekin almashtirish emas, balki yer, suv, dehqon mehnatiga va kelajakda munosabotni o'zgartirishdir. Kechagi



qishloq xo'jaligi “oq oltin” bilan tanilgan bo'lsa, ertangi O'zbekiston qishloq xo'jaligi sog'lom, rang-barang, suvni tejaydigan va inson qadriga xizmat qiladigan milliy dasturxon bilan tanilishi kerak. Bu milliy dasturxonnda ham nam, meva ham, sabzavot ham, dukkaklilar ham, sut, tuxum, baliq, parranda go'shti, sifatli yog', yong'oq va poliz mahsulotlari ham bor. Bu faqat mahsulot xilma-xilligi emas, balki sog'lom millat asosidir.

Paxtachilik ham yangicha ma'no kasb etmoqda

“Oq oltin”dan keyingi davr paxtadan voz kechish degani emas. Bu paxtani eskicha hududiy hukmron ekin sifatida emas, balki ilm, texnologiya, suv tejamlorligi, yuqori qo'shilgan qiymat va oziq-ovqat xavfsizligi bilan uyg'un holda boshqarish deganidir.

Yaqinda nufuzli Nature-Scientific Reports jurnalida chop etilgan milliy miqyosdagi tadqiqotimiz O'zbekiston paxtachiligida aynan shunday yangi bosqich boshlanganini ko'rsatdi. 2021-2025-yillarda paxta maydoni 1 million 31 ming gektardan 875,6 ming gektarga qisqardi, ya'ni 15,1 foiz kamaydi. Ammo shu davrda umumiy paxta hosili 19,3 foiz oshib, 3,99 million tonnaga yetdi. O'rtacha hosildorlik oshdi. Bu natijaning mazmunida juda oddiy: O'zbekiston paxtachiligini “ko'prog'ini maydon” mantig'idan “ko'prog'ini bilim, texnologiya va samara” mantig'iga o'tmog'unda. Ya'ni kamroq yerda ko'prog'ini hosil olish, suvni tejash, xarajati kamaytirish, fermer daromadini oshirish bilan birga oziq-ovqat ekinlari uchun yer imkoniyatini kengaytirish yangi paxtachilik siyosatining asosiy mazmuniga aylanmoqda.

Shu bilan birga, paxtadagi yangi intensiv agroteknologiyalar iqtisodiy jihatdan ham samarali ekan ko'rinmoqda. Tadqiqotda 76 santimetr intensiv ekish sxemasi, tomchilatib sug'orish va fertigatsiya (mineral o'g'it yoki zarur moddalar bilan sug'orish) orqali gektar boshiga mahsulot yetishtirish xarajati sezilarli kamayishi, suv sarfi 40 foizgacha qisqarishi va mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligi oshishi qayd etilgan. Demak, ilmiy yondashuv fermerga ham, tabiatga ham, milliy iqtisodiyotga ham foyda beradi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi uchun ham bevosita muhim. Chunki paxtada “ko'prog'ini” kamroq

maydon — kamroq suv — ko'prog'ini qo'shilgan qiymat” tamoyili mustahkamlansa, sabzavotchilik, bog'dorchilik, chorva uzquasi, dukkaklilar va boshqa oziq-ovqat ekinlari uchun ko'prog'ini imkoniyat yaratiladi. Boshqacha aytganda, zamonaviy paxtachilik diversifikatsiyaga to'siq emas, aksincha, uning imkonini kengaytiradigan omilga aylinishi mumkin.

Albatta, bu natijalarni yakuniy manzil emas, balki islohotlar davridagi muhim ilmiy dalil deb baholash to'g'ri bo'ladi. Tadqiqotimiz ham 2021-2025-yillar qisqacha, ammo juda muhim transformatsiya davri ekanini ta'kidlaydi. Endigi vazifa bu o'sishni uzoq muddatli, ekologik barqaror va fermerlar uchun adolati tizimga aylantirishdir. Paxta kelajakda ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi. Lekin u endi yakka hukmron ekin emas, balki rang-barang, oziq-ovqat yo'naltirilgan, insonparvar va barqaror agrar tizimning bir qismi bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda yaratilgan poydevor

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirish, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, bozor munosabatlari joriy etish, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini kengaytirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sohani raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha keng ko'lami ishlar bajarildi. 2025-yilda 2016-yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4,5 barobar oshdi. Sabzavot, meva, kartoshka, poliz, go'sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlarida barqaror o'sish kuzatildi. Baliq yetishtirish 2016-yilda 84 ming tonna bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 206 ming tonnaga yetdi. Bu oqsil manbalarini ko'paytirish, ovqatlanish madaniyatini boyitish va qishloqda yangi daromad

kelajakda O'zbekistonning agrar siyosati “ko'prog'ini yer ochish”dan ko'ra “har bir gektarni bilim va mas'uliyat bilan ishlatish”ga taylanishi kerak. So'nggi yillarda tuproqni muhofaza qilish, unumdorligini oshirish, agrokimyoviy xaritalar tuzish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish, almashlab ekish va past hosilli maydonlarni tiklash bo'yicha muhim ishlar qilindi. 2019-2023-yillarda 692 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritildi, qo'shimcha 6 million tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyati yaratildi va 213 ming ish o'rni ochildi. Kelajakda tuproq unumdorligini oshirish uchun dukkakli ekinlar, almashlab ekish, organik modda, biogumus, biochar, tuproq mikrobiomi, agroekologiya va suv kam talab qiladigan ekinlar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bozordan insoniylikka qarab: STEM+HECI zarurati

Bozor islohotlari qishloq xo'jaligini harakatga keltirdi. Bu zarur bosqich edi. Ammo endi yanada yuqori bosqichga o'tishimiz kerak. Faqat “bozorga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi” yetarli emas. Bizga “bozorga yo'naltirilgan + insoniylikka yo'g'rilgan qishloq xo'jaligi” kerak. Bozor bizga qaysi mahsulot yaxshi sotilishini anglatadi. Ammo insoniylikka yo'g'rilgan yondashuv savol qo'yadi: bu mahsulot bolalar salomatligiga, suvga, tuproqqa, fermer daromadiga va kelajak avlodga qanday ta'sir qiladi?

Shu yerda STEM+HECI yondashuvi juda muhim. STEM — fan, texnologiya, muhandislik va matematika bizga hosildorlik, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, genomika, seleksiya, suv tejoychi tizimlar, sensorlar va dronlarni beradi. HECI — Humanity, Ethics, Creativity and Imagination, ya'ni insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur —



Xulosa: bugungi don ertaga non bo'ladi

2050-yil bizdan uzoq emas. Bugun maktabga borayotgan farzandlarimiz o'sha davrda mamlakatimizning asosiy ishchi kuchi, olimlari, fermerlari, tadirkorlari va rahbarlari bo'ladi. Ularning dasturxonida qanday non, qanday sut, qanday sabzavot, qanday meva, qanday suv bo'lishi bugungi qarorlarimizga bog'liq. Dunyo xavflari real: suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, mikroplastik ifloslanish, antibiotiklarga chidamlilik, tuproq degradatsiyasi, geosiyosiy uzilishlar va oziq-ovqat narxlarini beqarorligi. Ammo yetimlar ham aniq: ilm, innovatsiya, suv tejamlorligi, raqamlashtirish, organik va “yashil” dehqonchilik, qayta ishlash, to'g'ri ovqatlanish madaniyati, STEM+HECI ta'limi va adolati bozor munosabatlari. FAOning eng muhim sabog'i shundaki, dunyo yetarli oziq-ovqat ishlab chiqarishi mumkin, ammo ochlikni yengish uchun odamlarda ushbu oziq-ovqatga yetishish imkoniyati, daromad, infratuzilma, bilim va barqaror qishloq iqtisodiyoti bo'lishi shart. Shuning uchun O'zbekistondagi agrar islohotlar faqat mahsulot ko'paytirish emas, balki qishloqda daromad yaratish, fermeri ekinlashtirish, dehqonni bozorga olib chiqari, yoshlar va xotin-qizlarga imkoniyat berish, suv va tuproqni asrash, ilm-fanni dalaga yaqinlashtirish jarayonidir.

“Daladan — dasturxonigacha” tamoyili

Kelajakda g'olib mamlakatlar faqat ko'p yetishtirganlar emas, balki mahsulotni yo'qotmagan, saqlagan, qayta ishlagan, qadoqlagan, sifatini saqlab, iste'molchiga xavfsiz yetkazganlar bo'ladi. Agar dehqon 100 tonna meva yetishtirsa, uning katta qismi saqlanib, tashish yoki bozorga yetkazishda yo'qolsa, bu faqat iqtisodiy zarar emas, balki suv, mehnat, tuproq, o'g'it va inson umidi yo'qotilishidir. Shuning uchun qayta ishlash 2050-yildagi oziq-ovqat xavfsizligining markaziy masalalaridan. Bugun O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari qismini oshmoqda, qayta ishlash quvvatlari meva-sabzavot, go'sht, sut, un va o'simlik yog'i yo'nalishlarida kengaymoqda. Lekin bu hali boshlanishi. Meva-sabzavotni chuqur qayta ishlash, muzlatish, quritish, tabiiy sharbatlar, bolalar oziqasi, funksional oziq-ovqatlar, yuqori qiymatli eksport mahsulotlari, organik mahsulotlar va xalqaro standartlarga mos qadoqlash kelajakdagi katta imkoniyatlardir.

Raqamli qishloq xo'jaligi — shaffoflik va ishonch omili

Kelajak dehqoni faqat ketmon va traktor bilan emas, raqamli ma'lumot bilan ham ishlaydi. Qaysi yerda qanday tuproq bor? Qaysi hududda suv tanqisligi kuchayadi? Qaysi nav issiqqa yoki sho'rta chidamli? Qaysi mahsulot bozorda talabgan? Qaysi fermerga qanday subsidiya berildi?

Tuproq — tirik boyluk

Tuproq — tirik boyluk. Agar tuproq charchasa, eng yaxshi urug' ham, eng zamonaviy texnika ham kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun

Ijtimoiy himoya



Mazkur hujjat tibbiyot, ijtimoiy himoya, mahalla, diniy-ma'rifiy muassasalar va jamoatchilikni yagona maqsad atrofida birlashtirmoqda. Mas'ullar yurtdoshlarimiz yoniga O'zbekiston insonparvarlik siyosatining namunalarini — katta tuhfa hamda xush kayfiyat olib bormoqda.

Og'ir kasallikdan jabr ko'rayotgan oila ko'p hollarda daromad manbaini yo'qotadi, qarza kiradi, mehnat bozorida uziladi, farzand ta'limi va kundalik ehtiyojlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Davlatning bunday aralashuvi oilani iqtisodiy sinishdan asraydi. Ularning yelkasiidan suyaydigan Vatani — O'zbekiston borligini bildirib turadi.

Qarorda 690 milliard so'm davlat maqsadli jamg'armalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan "Vaqf" xayriya jamoat fondi orqali moliyalashtirilishi belgilangan. Bu

saqlash vazirligi tibbiy xizmatlar sifati va yo'naltirish mexanizmlarini ta'minlayapti. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi klinik protokollar va standartlar asosida nazorat olib borayotgan bo'lsa, hokimliklar hududiy kengashlar orqali joylardagi ishlarni muvofiqlashtirmoqda. Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi va "Vaqf" fondi esa saxovat tadbirlarining ma'naviy va jamoatchilik ruhini kuchaytirdi. Bir so'z bilan aytganda, bayram arafasida mas'ullarning qo'li qo'lga tegmayapti.

Ayniqsa, bemor bolalarning moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning kelajagi uchun oqilona yechim bo'ladi. Bu o'rinda ota-onalar roli ham alohida ahamiyatga ega. Davlat tibbiy, moliyaviy va tashkiliy imkoniyat yaratadi, oila esa bolaning ruhiy tayanchi bo'ladi. Kasallik bilan kurashayotgan bola uchun operatsiya yoki dori-darmon qanchalik

Inson qadri uchun



Yurtimizda yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat nafaqat zamonaviy ijtimoiy himoya mexanizmlari, balki xalqimizga xos yuksak ma'naviy qadriyatlar, mehr-oqibat, saxovat, o'zaro ko'mak, keksalarga hurmat va jamiyat oldidagi mas'uliyat tamoyillariga ham tayanadi.

JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI QUDRATLI KUCH



Farid NAZAROV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo'lim boshlig'i

orzular ro'yobi, haqiqiy bayram tuhfasidir.

Hayit bayrami shukhi bolalarning shodon kulgusi, samimiy tabassumida bo'ladi. Shu bois, ota-onalar, bobo-buvilar ularga hayitlik tuhfa etadi. Qurbon hayiti munosabati bilan esa davlatimiz tomonidan ota-ona qaramog'idan mahrum bolalar, vasiylik, homiylikdagi farzandlar, Mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari, Vatani sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan ota-onalarning farzandlari hamda "Taskin Children's Hospice"da davolanayotgan bolalarning omonat hisobvaraqlariga 200 AQSH dollari miqdorida pul qo'yilishi nazarda tutilgan. Bu mablag' ramziy ko'makdan ko'ra kengroq ma'no kasb etadi: davlat bolaga "Sen yolg'iz qolganing yo'q" degan ishonchni beradi.

Ijtimoiy davlatning qiyofasi aynan shunday qarorlarda ko'rinadi. Qonunlar, dasturlar, strategiyalar qog'ozda qolib ketmasligi uchun ular inson taqdiriga tegishi, oila dardiga yechim bo'lishi, bola kelajagiga yo'l ochishi lozim.



modelning o'zi ham e'tiborga loyiq. Davlat moliyaviy kafolat beradi, jamoatchilik va xayriya instituti esa ezgu ishlarning amaliy kanallaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi ehtiyojmand toifalar bilan ishlash, bolalar va oilalar manfaatlarini himoya qilishda markaziy bo'g'in sifatida ishtirok etmoqda. Sog'liqni

zarur bo'lsa, mehr, ishonch, sabr va tarbiya ham shunchalik muhim.

Mazkur qaror ijtimoiy maqom nuqtayi nazaridan O'zbekistonni yanada insonparvar davlat sifatida namoyon qiladi. Chunki davlatlarning kuch-qudrati yo'l, bino, sanoat korxonalarini qurish bilan birga mana shunday ijtimoiy loyihalarni o'tkazishda yaqqol ko'rinadi.

Qurbon hayiti munosabati bilan qabul qilingan ushbu qaror jamiyatga juda muhim signal berdi, ya'ni saxovat faqat shaxsiy fazilat bo'lib qolmay, davlat boshqaruvining ham axloqiy mezoniga aylanoqda. Bu yo'nalish kelajakda ijtimoiy ish, tibbiy sug'urta, mahalla, xayriya institutlari va raqamli hisobot tizimlari o'rtasida yanada chuqur integratsiyani talab qiladi.

Bayram shukhi saxovat dasturxonidagi taom bilan o'lchanmaydi, u operatsiya xonasida hayot uchun kurashayotgan bolaning nafasida, davolanish xarajati qoplangan bemorning ko'zidagi yengillikda, vasiylikdagi bolaning omonat hisobvarag'ida, obod qilingan qabristondagi xotira madaniyatida, masjidga yaratilgan qulay sharoitlarda ifodasini topadi.

Qurbon hayiti ruhi ham aslida shu: inson insonga yaqinlashadi, davlat xalq dardiga yanada yaqin turadi, saxovat esa jamiyatni birlashtiruvchi sokin, ammo qudratli kuchga aylanadi.

MEHR-OQIBAT, KAYR-U SAXOVAT – MUBORAK KUNLARNING ULUG' FAZILATI



Bugun O'zbekistonda ijtimoiy yordamga bir martalik ko'mak emas, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolarning davlatga ishonchini kuchaytirish va hamjihatlik muhitini qaror toptirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, bu tamoyillar xalqimizga xos ezgu fazilatlarini mujassam etgan muborak Ramazon va Qurbon hayiti kunlarida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Zero, ushbu muqaddas ayyomlar insonparvarlik, saxovat va bag'rikenglikni yuksak timsolidir.

Prezidentimizning joriy yil 21-maydagi "Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarori mehr va ko'makka muhtoj ko'plab yurtdoshlarimiz qalbiga quvonch olib kirdi.

Xususan, hujjatda davlat ta'minotidagi oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni oziq-ovqat to'plamlari bilan ta'minlash belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar "Vaqf" xayriya jamoat fondiga ajratiladigan 690 milliard so'm hisobidan moliyalashtiriladi.

Ayni kunlarda "Vaqf" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan ehtiyojmand bemorlarning murakkab jarrohlik amaliyotlari va davolash xarajatlari ham to'liq qoplab berilmoqda. Og'ir xastalik bilan kurashayotganlarga bepul operatsiya vaucherlari topshirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bor, og'ir ahvoldagi o'n ming

bolada murakkab jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi belgilangan. Shu bilan birga, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan 2300 bemorni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va davolash hamda kamida 350 bemorda jigar va buyrak transplantatsiya amaliyoti o'tkaziladi.

Ushbu xayrli tashabbus ko'plab yurtdoshlarimiz qatori yigirma yildan buyon buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan Temur Hakimov qalbiga ham cheksiz umid, xonadoniga esa bayramona quvonch olib kirdi. Uning yaqinlari davlatimizning inson qadri uchun ulug'lashga qaratilgan mehri siyosatidan behad mamnun ekanini bildirdi.

Og'ir xastalik nafaqat inson tanasi va ruhiyati, balki uning yaqinlarini ham sinovdan o'tkazadi. Ushbu xastalik sabab yetti yildan buyon gemodializ mulajasini olib kelayotgan T.Hakimov uchun transplantatsiya amaliyoti hayotini qaytadan boshlash imkoniyatidir.

Bu ezgu ishlarning Qurbon hayiti arafasida qilinayotgan muhim ahamiyatga ega. Zero, insonlarga yaxshilik ulashish, mehr-oqibat ko'rsatish ayni shu muborak kunlarning ulug' fazilatlaridandir.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizdagi bunday ezgu ishlar "Inson qadri uchun" tamoyili amalda o'z ifodasini topayotganining yorqin ifodasidir.

Bahodir MUHAMMADIYEV,
"Vaqf" xayriya jamoat fondining Yunusobod tumanidagi vakili

BOLAJON YURTDA YASHAYOTGANIMDAN FAXRLANAMAN

Rahmatli ota-onam juda mehribon edi. Bilimli, esli-hushli bo'lib ulg'ayishimni istardi. Aytganlari ijobat bo'ldi. Opam Farg'ona davlat universitetiga chin yetim farzandlar uchun berilgan imtiyozli kvota asosida o'qishga kirib, oliyog'ni a'lo baholarga tamomladi. Bugun mustaqil hayot yo'lini qurgan yoshlardan.

Joriy yil tumandagi 4-umumta'lim maktabning 10-sinfini bitirdim. Maktabda o'qish bilan birga qo'shimcha fan, sport-sog'lomlashtirish to'garaklariga qatnashaman. Kelgusida iqtisodchi bo'lishni maqsad qilganman.

Yaxshilarning bori yaxshi. Oltiariq tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari tez-tez xabar olib turibdi. Prezidentimizning cheksiz e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli Yangi yil bayrami munosabati bilan bizga 500 AQSH dollari miqdorida bir martalik moddiy yordam berildi. Boshqa sovg'a-salomlar, yo'qlab keluvchilar bir dam

bo'lsa-da to'xtagan yo'q. Men inson qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'rgan, bolajon yurtda yashayotganimdan hamisha faxrlanaman.

Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalik, bag'rikenglik kabi ezgu fazilatlar yanada quloch yozgani yuz minglab oilalarga xotirjamlik, yurtdoshlarimiz qalbiga quvonch, shukronalik tuyg'ularini olib kirdi.

Bayram munosabati bilan shular qatori omonat hisobvaraqamga 200 AQSH dollari miqdorida pul qo'yilgani qalbinga bir olam quvonch ulashdi. Bunaqasi hech qachon bo'lmagandi.



Saxovat tadbirlarida ijtimoiy himoya-ga muhtoj oilalar, bemorlarga ham ko'rsatilayotgan cheksiz mehr va g'amxo'rlik ertangi kunga ishonchimizni mustahkamlayapti, ko'ksimizni iftixorga to'ldirmoqda. Bunday g'amxo'rlikdan nafaqat men, balki butun oila a'zolarim xursand. Chunki inson qadri ulug'larin yurtda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi.

Izzatillo AKRAMOV,
Farg'ona viloyati

Dil izhori
Ota-onam avtohalokatga uchrab, halok bo'lganida 5 yoshli bola edim. Ertalab yuz-ko'zlarimdan o'pib, men va opamga shirindan shakar ne'matlar, o'yinchoqlar olib kelishlarini aytib, ko'chaga chiqib ketgan mehribonlarimni bir zumda yo'qotish biz uchun juda og'ir bo'lgan. Bola bo'lsam-da, bu alamli kunlarni yaxshi eslayman...

Shukri, yolg'izlanib qolmadik. Yaqin qarindoshlarim, davlatimiz g'amxo'rligini his qilib yashab kelyapmiz. Bizni amakim vasiylikka olgan. Hech narsadan kamchililigim yo'q.

Shukuh

Surxondaryolik Munisa Shodiqulovaga osteosarkoma — suyak saratoni tashxisi qo'yilgan, bir necha oydan buyon shifoxonada davolanayotgan edi. Moddiy imkoniyati cheklangani sababli zarur jarrohlik amaliyoti ortga surilayotgandi. Qurbon hayiti arafasida Munisa uchun bepul jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi belgilandi. Bu xabar yosh qiz va uning yaqinlariga yana yashashga, hayotga, yorqin kelajakka ishonchni qaytardi.

Muborak Qurbon hayiti voha ahliga ana shunday xursandchiliklar, xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalikni tuhfa etdi. Ayniqsa,



ehtiyojmand oilalar, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan bolalar qalbiga bir olam quvonch ulashmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning "Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil

etish to'g'risida"gi qarori asosida "Ijtimoiy reyestr"ga kiritilgan, davlat ta'minotidagi 20 mingdan ortiq oilaga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi. Shuningdek, Munisa kabi og'ir xastalikka chalingan bemorlar hamda bolalarning jarrohlik amaliyoti va davolanishi uchun vaucherlar tarqatildi.

Hammamiz ham bir paytlar bola bo'lganmiz. O'sha davrda ota-onangiz, yoshi katta qarindoshlaringiz, mahalladoshlaringizdan hayitlik olgandagi lahza quvonchini eslay olasizmi? Yoki hayitlik ulasha turib, uni olgan bolalardagi taassurotni kuzatdingizmi? Katta ehtimol bilan bu jarayon, undagi samimiyat sizga begona emas.

Ha, bu bayram yangi libos kiyish, yaqinlarimizdan shirinlik olish kabi manfaatdorlik doirasidan ancha keng. U, avvalo, o'zaro mehr-oqibat, xayru saxovat, ginalarni unutish, birdamlik ayyomi.

Qurbon hayitining ana shunday quvonchlarini Termez shahridagi Jayxun

mahallasida yashovchi Nozanin Ismatilayevaning xonadoniga ham kirib bordi.

Yurak yetishmovchiligi tufayli qizimiz bir necha yillardan buyon davolanadi. Nozaninning muhim operatsiyasi turi sabablar bilan kechikib kelayotgan edi. Shu qutlug' kunlarda qizimizga operatsiya va davolanish xarajatlari uchun vaucher taqdim etildi. Bu esa uning sog'lom hayoti tomon tashlangan eng muhim qadamlardan biriga aylandi, — deydi onasi Dilorom Jo'rayeva.

Termizlik Malika Haqnozarovala bolaligida kuchli shamollagan. Oqibatda nafas yo'llari yallig'lanib, burnida murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazish zarurati tug'ilgandi. Yillar davomida uni qiyin kelgan bu muammo ham endilikda davlat ko'magida bartaraf etiladigan bo'ladi.

Bandixon tumanida bunday ezgu ishlar keng quloch yozib, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan

11 bolajonga bepul davolanib, jarrohlik amaliyotini o'tkazishi uchun vaucherlar topshirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan va yolg'iz yashovchi 456 oilaga 10 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Qutlug' ayyom arafasida Angor tumanida o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar qo'llab-quvvatlanib, ularning bayramni munosib o'tkazishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda tuman hokimligiga ana shu toifadagi 700 ta oila vakillari taklif etilib, ularga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Bugun Munisa, Nozanin va Malika singari ertaga yorug' nigoh bilan qaray boshlagan kelajagimiz egalari va ijtimoiy himoyaga muhtoj sanalgan minglab xonadonlar vakillari uchun Qurbon hayiti va shu munosabat bilan ulashilgan alohida mehr-e'tibor shunchaki bayram emas, yangi umid ayyomiga aylandi. Chunki inson qadri ulug'langan yurtda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



taqdirdagina kutilgan natijani beradi. Shu maqsadda sport akademiyasi huzurida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur tizim orqali murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport tashkilotlari rahbarlari zamonaviy bilim va ko'nikmalar asosida muntazam tayyorlanayapti.

Sport ta'limida eski qarashlar bilan yuqori natijaga erishish mushkul. Zamonaviy murabbiy sport fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogika, menejment, axborot texnologiyalari, xalqaro sport standartlari kabi ko'plab yo'nalishlarni puxta bilishi talab etiladi. Shu sababli malaka oshirish tizimida interaktiv metodlar, amaliy seminarlar, innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribani o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayon sport mutaxassislarining dunyoqarashini kengaytirib, kasbiy faoliyatiga yangicha fikrlash tarzini olib kiradi.

Demak, yangi infratuzilma va ta'lim tizimi sportning ommalashuviga ham kuchli ta'sir ko'rsatayapti. Ilgari ayrim hududlarda sport bilan professional shug'ullanish uchun imkoniyatlar cheklangan edi. Bugun esa



Til egalari



YOSHLARGA TAYANCH LOYIHA

Bir emas, bir nechta xorijiy tilda bemaol suhbatlashayotgan yoshlarga havasimiz keladi. Bundaylar ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar orzulangidek, "g'ayri tillarni o'rganishga sa'y qilgan, til bilmak foydali kon" ekanini chuqur anglatgan yigit-qizlardir. Ularning aksariyati ota-onasini katta mablag' sarflashga majbur qilmayapti, mamlakatimizda ilm egallash, ayniqsa, til o'rganish uchun yaratilgan cheksiz imkoniyatlardan unumli foydalanayapti, xolos.



"O'zbekiston — 2030" strategiyasida yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillarga o'qitish tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda har bir viloyatda bittadan "Kreativ park" tashkil etib, ularga har yili kamida 40 ming yoshni jalb qilish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ayni maqsadga erishish uchun maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va bitta kasbni egallashi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur vazifalar Yoshlar ishlari agentligini "Ibrat farzandlari" loyihasini yo'lga qo'yishga undadi. Muvaffaqiyatli amalga oshgan g'oya yoshlarning bepul til o'rganishi uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi. U orqali 22 ta xorijiy til, shuningdek, IELTS, TOEFL testlariga tayyorlov kurslari, axborot texnologiyalarining ingliz tilidagi formati, bolalar uchun ingliz tili, imo-ishora tili darslarini Youtube platformasi hamda "Ibrat Academy" mobil ilovasi yordamida bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o'rganish mumkin. Bu katta imkoniyat. Shu bois, ayni paytga kelib, "Ibrat farzandlari" loyihasining Youtube platformasidagi obunachilari soni bir milliondan oshdi. Loyiha rahbari Rustam Qoriyev "Ibrat Academy" ilovasi foydalanuvchilari ham 3 milliondan ortigani, loyiha yoshlarga chinakam tayanch bo'layotganidan mamnunligini bildirdi.

Platformadan foydalanib, davlat granti asosida o'qiyapman

— Surxondaryoning Jarqo'rg'on tumanida tug'ilganman. Bolalikdan nemis tiliga qiziqqanman, — deydi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Elbek Dulliyev. — O'quv markazlari, repetitorlar bilan natijalarim kutganidek bo'lmadi. 2023-yilda ijtimoiy tarmoqlar orqali "Ibrat farzandlari" loyihasi haqida eshitib, nemis tili darslarini ilovadan o'rgana boshladim. AytSAM, ko'pchilik ishonmaydi. Shu platforma yordamida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining nemis tili yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga kirdim. V2 darajali sertifikat oldim. Germaniyaga ikki marotaba grant asosida borib keldim. Bugun o'zimning ham ko'plab o'quvchilarim bor.

Buxorolik Shirin Sheraliyeva loyiha haqida onasidan eshitgan. Ingliz tilini arzon va sifati o'rganish istagida yurgan o'quvchi uchun bu ayni muddao bo'lgandi o'shanda. — Til kurslari arzon emas. Ammo loyiha doirasida darslarni bepul o'rgandim, — deydi u. — Kuniga bir necha soatlab planshetda dars tayyorlardim. Natija a'lo bo'ldi. IELTS imtihonidan 7 ball oldim. Tumanimiz markazidagi o'quv kursida dars ham bera boshladim. Ilk maoshimni olib kelganimda onam quvonganidan rosa yig'ladi. Bugun talabaman. Kelajakdagi maqsadim — tanqilij tarjimon bo'lish. Buning uchun tinmay o'z ustimda ishlayapman.

Odamlar odatda bepul to'garaklar, darslarni sifatsiz, yuzaki bo'ladi deb o'rganib qolgan. Biroq loyihadan til o'rganayotgan qaysi yosh bilan suhbatlashmang, darslar shunchaki emas, natija uchun o'tilayotganini aytadi. Faqat qiziqish bilan muntazam qatnashib borilsa, bas.

Sun'iy idrok o'zbek tilini ham oson o'rgatadi

"Ibrat farzandlari" NNT bo'lim boshlig'i Mahfuza Ortiqova bilan suhbatda loyiha haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldik. Xususan, xorijliklar uchun o'zbek tili va grammatikasini o'rgatishni ham O'zbekistonda birinchilardan bo'lib shu loyihada yo'lga qo'yilgan. Bugun chet elliklarga o'zbek tili

bepul o'rganilishi barobarida maxsus savodxonlik darslari o'tiladi.

O'tgan yili mamlakatimizda ilk bor ona tilimizni o'rganish bo'yicha sun'iy idrok yordamida yaratilgan o'zbek tili dasturi platformasi e'lon qilindi. Loyiha doirasidagi mazkur dastur learnuzbek.ai platformasiga joylashtirilgan. U ham bepul va xorijliklarga o'zbek tilini ingliz tili orqali o'rganish imkonini beradi.

— "O'zbek tili" dasturi doirasida shu kungacha 115 ta bo'lim, 970 ta dars, 3700 dan ortiq yangi so'z va 7000 dan ziyod mashqlarni qamrab olgan hamda keng foydalanuvchilar auditoriyasiga mo'ljallangan kurs ishlab chiqildi, — deydi dastur muallifi, tilshunos Namoziy Rasulov. — Unda talaffuzdan tortib, kundalik qo'llanadigan so'z hamda iboralariga o'rganish mumkin. Dasturdan yurtimizdagi o'zga millat vakillari va xorijlik fuqarolar, O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar, shu yerda faoliyat yuritayotgan turli soha vakillari, xorijlik talabalar, chet davlatlarda istiqomat qiluvchi vatandoshlarimiz, xorijiy mamlakatlar hamda yurtimizdagi o'zbek tili kurslari o'quvchilari, umuman, o'zbek tilini o'rganish istagidagi har qanday inson foydalanishi mumkin.

Dasturning yana bir o'ziga xosligi — unda talaffuz qoidalarini sun'iy idrokda o'zbekchallashtirilgan. Mutasaddining aytishicha, mazkur platformaga joylashtirilgan har bir daraja dasturi CEFR talablariga binoan ishlab chiqilgan. "Ibrat farzandlari" sahifasi obunachilari soni 1 millionga yetgani yoshlarimizning ilimga, til o'rganishiga katta ishtiyotini amalda isbotladi. Ushbu videodarslarning mantiqiy davomi sifatida yaqinda "Ibratli imlo" amaliy qo'llanmasi ham yaratildi.

Bugungi davr muntazam harakat qilganiki. Axborot maydonida sun'iy idrokning roli kun sayin ortmoqda, — deydi "Ibrat Academy" mobil ilovasi boshqaruvchisi Iskandar Kamoliddinov. — Buni teran anglagan holda sun'iy idrokni xorijiy tillarni o'rganish tizimiga integratsiya qildik. Bundan tashqari, futbol uchun ingliz tili, Great Debater dasturlari yoshlarimiz uchun manfaatli bo'lmoqda. Bu kabi premium kurslar yana boshqa tillarda ham ishlab chiqilmoqda.

Ayni paytda "Ibrat farzandlari" tarkibida chet tillarni o'rgatuvchi "TOP 100 Uni", "Ibrat Debate", "Ibrat Camp", "Ibrat master class", "Ibrat quiz", "Notiqlik mahorati", "Speaking club", bolalar uchun "Ibrat Kids City", xorijiy tillarni o'rganish natijasida turmush darajasi ortgan insonlar haqida so'zlovchi "Ibrat kashfiyotlari" kabi loyihalar tashkil qilib kelinayotir.

Bugun loyiha o'zbek tilini o'rganish va o'zbek tilini xorijiy mamlakatlarda ommalashtirish, elektron va bosma darsliklar, terminologik lug'atlar hamda interaktiv dasturlarni ishlab chiqish kabi amaliy yutuqlarga erishyapti.

Kutilayotgan natijalar — yoshlar o'rtasida xorijiy tillarni o'rganish va o'zbek tilining xalqaro o'rganilishini qo'llab-quvvatlash, mobil ilova orqali tillarni o'rganishni osonlashtirishga ham asta-sekin erishilyapti.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

SOG'LOM AVLOD ZEHNIYATIDA SHAKLLANAYOTGAN MATONAT

mamlakatning ertangi salohiyatini belgilab beradi

Yurtimizda sport infratuzilmasini kengaytirish, zamonaviy sport majmualari qurish, xalqaro standartlarga mos tayyorgarlik tizimini shakllantirish, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Xususan, Olimpiya shaharchasining buniyod etilishi, sport akademiyasining tashkil qilinishi, shuningdek, murabbiy va mutaxassislar malakasini oshirish tizimining yangicha yo'sinda yo'lga qo'yilishini yodga olish kifoya.

Sport tizimidagi eng muhim bo'g'inlardan biri murabbiylar faoliyatidir. Har qanday chempion ortida yillar davomida zahmatli mehnati bilan shogirdlari uchun astoydil qayg'uradigan, mag'lubiyat qarshisida esankiramaslik, g'alaba onida mammanlikka berilmaslikni eslatib turguvchi murabbiylar, ustozlar turishi ham ma'lum. Shu sababli sohadagi bugungi islohotlarda murabbiy shaxsiga talablar tubdan o'zgarimoqda. Ulardan ulkan tajriba va texnik elementlar borasidagi puxta bilimlar bilan bir qatorda yuksak ma'naviyat, pedagogik mahorat, psixologik tayyorgarlik, zamonaviy bilim va kreativ yondashuv talab etiladi. Shu ma'noda, trenerlik faoliyatiga oid qonunchilikning takomillashayotgani ushbu kasbning jamiyatdagi o'rini yanada mustahkamladi. Ayniqsa, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda murabbiylarning huquq va majburiyatlari, kasbiy mas'uliyati, etikaviy mezonlari hamda malaka talablari aniq belgilab qo'yildi. Bu o'zgarishlar sport tizimida professional muhitni kuchaytirish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, xalqaro maydonlarda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Avvalo, so'nggi yillardagi islohotlar sportning jamiyat hayotidagi o'rni nisbatan qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo'yilgani ushbu sohaning huquqiy maqomini yanada mustahkamladi. Respublika bo'ylab yangi sport majmualari, universal zallar, suzish havzalari, ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilayotgani esa ana shu siyosatning amaliy ifodasidir.

Sport sohasidagi yangilanishlar markazida, birinchi navbatda, inson omili turibdi. Mahallalarda sport maydonchalari qurilishi, ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga e'tiborning ortishi, ommaviy yugurish marafonlari va sog'lomlashtirish tadbirlarining ko'payib borayotgani aholining turmush madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatyapti. Mazkur jarayon esa, o'z navbatida, odamlarning sport hamda jismoniy tarbiyaga qarashlarini tubdan o'zgartirib, uni tobora kundalik hayotiy ehtiyojiga aylantirayotganiga barchamiz guvohmiz.

Shu bilan birga, sport infratuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan tayyorgarlik tizimini yaratish, professional sport ta'limini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli amaliy ishlar bajarildi va bajarilayotir. Xususan, Olimpiya shaharchasining buniyod etilishi hamda sport akademiyasining tashkil qilinishini ana shu yondashuvning yaqqol namunasi deiyish mumkin.

Olimpiya shaharchasi — bugungi sport siyosatining ramziy ifodasi. Ushbu majmua yirik sport ekotizimini o'zida mujassam etadi. Bu yerda sportchilarning

zamonaviy sport majmualari, ixtisoslashtirilgan maktablar va tayyorgarlik markazlari yoshlarning iste'dodini erta aniqlash hamda rivojlantirish imkonini bermoqda. Ushbu jarayon uzoq hududlardagi yoshlar uchun ham ulkan rag'bat manbaiga aylandi. Ayniqsa, yosh avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ularning hayotga qarashiga ijobiy ta'sir etib, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yishiga turtki bermoqda. Shunday ekan, bugungi sport tizimi murakkab va tez o'zgaruvchan jarayonlar bilan tavsiflanadi. Zamonaviy musobaqalarda yuqori natijaga erishish kuch yoki iste'dod bilangina belgilanmaydi. Ilmiy yondashuv, metodik tayyorgarlik, psixologik boshqaruv, texnologik imkoniyatlardan foydalanish, murabbiy tafakkurining kengligi ham hal qiluvchi omillardan. Ayni maqsad yo'lida barpo etilgan sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish instituti faoliyati ham shu jihatdan alohida e'tiborga molik. Mazkur tizim orqali sport ta'limi tashkilotlari rahbarlari, trenerlar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va boshqa mutaxassislarining kasbiy bilimi muntazam yangilanib bormoqda. Muhimi, bugungi malaka oshirish jarayonida interaktiv usullar, amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar tahlili, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy sport metodikalariga keng o'rin berilmoqda.

Bundan tashqari, sport sohasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi xalqaro raqobat bilan ham bevosita aloqador. Global sport maydonida tayyorgarlik tizimlari o'rtasidagi tafovut bisyor. Ular orasidan eng yaxshi tajribalarni o'z vaqtida ilg'ash hamda amaliyotga joriy etish g'oyat muhim. Yuqori natija uchun kurashda soniyalar, ayrim hollarda hatto soniyaning yuzdan bir ulushi hammasini hal qilib qo'yishi mumkin.

Bunday sharoitda murabbiy bilimining chuqurligi va metodik tayyorgarligi katta ustunlik beradi. Ayni chog'da kasbiy rivojlanish borasida ulduzsizlik tamoyiliga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki sportdagi o'zgarishlar bir joyda to'xtab qolmaydi. Qoidalar yangilanadi, metodikalar o'zgaradi hamda tiklanish texnologiyalari takomillashib, sport fiziologiyasiga oid yangi ilmiy qarashlar paydo bo'ladi. Ana shu jarayonlarda bilimi va ko'nikmalarini muntazam boyitib borishi murabbiylarning professional barqarorligini ta'minlaydi. Bu yo'nalishdagi izchil ishlar kelgusida mamlakat sportining xalqaro maydondagi salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ammo eng muhimi bu emas, asosiy maqsad o'ziga ishongan, sog'lom fikrlaydigan, mustahkam irodali avlodni tarbiyalash.

Shu ma'noda, bir fikrni ilgari surmoqchimiz. Kelajakda texnologiyalar o'zgarar, kasblar yangilanar, dunyoqarash va hatto tafakkur hamda yashash tarzi o'zgaracha tus olishi mumkin. Biroq insonni inson qilib turadigan eng muhim sifatlar o'zgarishsiz qolaveradi. Sabr, intizom, iroda singari fazilatlar shular jumlasidan. Sport esa ana shu fazilatlarini tarbiyalaydi, kamol toptiradi. Murabbiylar ularni inson qalbiga, ruhiyati va shuuriga singiradigan shaxsdir. Shu bois, sport sohasini rivojlantirish vazifasi mohiyatan jamiyatning ertangi qiyofasini shakllantirish masalasi, desak ham yangilishmaymiz. Bugun sog'lom turmush tarzi uchun mashg'ulotlarga qatnashayotgan bolalar orasida ertaning chempionlari ham, olimlari ham, vatan oldidagi katta mas'uliyatni zimmasiga ola biladigan kelajak liderlari ham ulg'aymoqda. Ularning xarakterida bugun ildiz otayotgan matonat esa mamlakatning ertangi qudratini belgilab berishiga aslo shubha yo'q.

Asqar AMANOV,
O'zbekiston sport akademiyasi
huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport
mutaxassislarini qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti
rektori, professor
Akram AKMALOV,
institut professori





Mulohaza

Metafora ohangidagi ayni sarlavhada quyidagilarni nazarda tutganmiz: tafakkurning bir ko'zi — kitob. Uning yordamida diqqatni jamlab, kerakli materialni batafsil o'rganish, chuqur fikrlash orqali bilimni o'zlashtirish va boyitish mumkin. Ikkinchi ko'z — gadget vositasida esa tez, yuzaki va interaktiv fikrlanadi. Ha, texnologiyalar zamonida minglab imkoniyatga ega turli elektron qurilmalar yaratilmoqda. Ular yordamida juda murakkab vazifalarni ham bir zumda bajaryapmiz. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor.

Yo'q, biz gadgetlarni yaxshi yoki yomon deb qat'iy xulosa chiqarmoqchi emas. Ular shunchaki zamonaviy qurilmalar, xolos. Asosiy masala ulardan qanday maqsadda va qay tarzda foydalanayotganimizda. Qolaversa, gap shu orqali texnologiyalar bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda axloqiy munosabatlar o'rtasida o'zimiz hosil qilayotgan ziddiyatlar borasida bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan birida sotsiolog olim Suhrob Xidirovning shu mavzudagi fikrlariga ko'zim tushdi. U dunyoga mashhur kinorejissor Stiven Spilberg asari asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida rejissor Nozim To'laxo'jayev tomonidan ishlangan "Mayin yomg'ir yog'adi" multfilmni misol keltirib, bunday deydi:

— Filmning asosiy g'oyasi texnologiya taraqqiyoti insoniyatning axloqiy mas'uliyatidan ustun bo'lmisligi haqida ogohlantirishdir. Ilmiy jihatdan qaralganda, sun'iy intellekt faqat algoritmlar va ma'lumotlarga asoslangan hisoblash tizimi. U ong, hissiyot va axloqiy jihatdan baholash qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun texnologiya rivoji inson nazorati va ma'naviy tamoyillar bilan muvozanatda bo'lishi zarur. Bu film bizni texnikani shunchaki yaratish emas, balki qanday maqsadda va qanday mas'uliyat bilan qo'llayotganimiz haqida chuqur o'ylashga chorlaydi.

Bir qarashda bunday mulohazalar oddiy o'quvchi uchun bir oz ilmiydek tuyulishi mumkin. Lekin mavzu inson ma'naviyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ham bevosita bog'liq. Shu ma'noda, odob-axloq, ma'naviy qarashlar va ma'naviyatni yuksak qadrlaydigan xalq sifatida mazkur mavzu har birimizga daxlidir.

Shiddatli zamonga hamnafas bo'lish, ishda va o'qishda ko'p narsaga ulgurish, kundalik turmushda vazifalarni bajarish oson va qulay bo'lishi uchun texnologik vositalardan keng



TAFAKKURNING IKKI KO'ZI

Biri kitob, ikkinchisi gadgetga aylandimi?

ko'lamda foydalanaymiz. Ayniqsa, uyali telefonlar bu borada yetakchi o'ringa chiqdi. Ular shunchalik urfga kirganki, kim qanday foydalanayotganiga e'tibor ham bermay qo'yganmiz. Bu qurilmalarni qo'llashda na yoshning, na kasb-hunarning ahamiyati qoldi. Ayniqsa, yoshlar va o'smirlar yo'lida ham, uy va o'qishda ham bu matohni ko'ldan qo'ymaydi. Hatto uxlayotganda ham qo'ng'iroqni eshitmay qolishdan cho'chibmi, uyali telefonni yostig'ining yoniga qo'yishni kanda qilmaydi.

Bu kabi manzaralar — kundalik hayotda uyali telefonlardan foydalanishga doir eng sodda va ko'p uchraydigan ko'rinishlar. Lekin bu hamma ulardan faqat shu tarzda foydalanadi degani emas, albatta.

Cheksiz axborot makonida taniqli mutaxassislar va olimlar tomonidan bu mavzuda turli mulohazalar berib boriladi. Ularning bosma kitob va matbuot orqali har qanday axborotni o'zlashtirish borasidagi ko'plab ijobiy xulosalari ham o'rinni. Shu bilan birga, texnologik qurilmalarning qulay jihatlari haqidagi fikrlarini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Bunday holatda go'yoki ma'naviy va texnik taraqqiyot o'rtasida dilemma yuzaga kelgandek tuyuladi: qay biri afzal? Ehtimol, savolni bunday shaklda qo'yish kerak emasdir. Chunki har ikki yo'nalish ham hayotimiz uchun birdek muhim va zarur. Texnika taraqqiyoti yashash sharoitimizni yaxshilashga va qulay bo'lishiga xizmat qilsa,



ma'naviyat hayotimiz, tafakkurimiz mazmuni hamda insoniy qiyofamiz ko'zgusi.

Gadgetlar olamining asl a'zolariga aylanib ulgurgan bugungi yoshlar (o'smirlar va kichik yoshdagi bolalar ham) hamda bu olam immigrantlari bo'lmish ota-onalar o'rtasidagi muloqot va munosabatlar ham o'zgaracha tus olayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Ayatlik, eshik qo'ng'irog'i jiringlab, bolangiz kirib keladi. Onasining "Keldingmi, qayerda eding?" kabi savollariga ham tushunarsiz bir

nimalar degancha, qo'lida telefon bilan o'z xonasiga shoshib kirib ketadi. Ota-onasining deyarli biror topshirig'iga "yo'q" demaydi, ammo uni o'z vaqtida bajarmaydi ham. Javob doim deyarli bir xil bo'ladi: "Xo'p, hozir..." va tamom.

Uydagilar bilan jonli muloqot juda sust, hamma virtual olamga sho'ng'igan. Aytaulik, onalar telefoniga ko'z tashlagan holda ham ovqat tayyorlayveradi. Bolalar esa yon-atrofiga ruchka-qalam va daftar-kitoblarni yoyib qo'yib, telefon yordamida jimgina dars tayyorlayotgandek

ko'rinadi. Ular savol bermaydi. Chunki ular uyali telefonidan javob topishni allaqachon o'rganib olgan. Olingan javoblarning obyektiv yoki noto'g'ri ekanini tahlil qilinmaydi, manbalarning qay darajada ishonchiligi e'tibor berilmaydi. E'tiborsiz ota-onalarga ham shunisi qulay go'yo. Bunday texnologik vositalardan noto'g'ri va ortiqcha foydalanishning bola ruhiyati va sog'lig'iga salbiy ta'siridan amaliy himoyalash to'g'risida-u, gapirmasa ham bo'ladi.

Shu o'rinda daryodan tomchi bo'lsa-da, ayrim ziyolilarning bu boradagi qarashlari va fikrlarini keltirib o'tsak.

Bir muddat avval yuz.uz saytida chiqqan shubhada Toshkent shahridagi maktablardan birida dars beruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchisining bunday fikrlariga ko'zim tushgandi:

— Texnologiyalar ta'limning dushmani emas. Aksincha, agar gadgetlardan oqilona foydalanilsa, ular biz, o'qituvchilarga o'quv jarayonini olib borishda faqat yordam beradi. Internet — foydal va qimmatli vosita, axborot xazinasi hamda kundalik hayotni yangilashitiradigan aloqa vositasi. Smartfonlar o'quvchilarga ham yangi bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikmalarni rivojlantirishda va dunyoqarashini kengaytirishda yordam berishi mumkin.

Elektron qurilmalar va sun'iy intellekt qanchalik foydali bo'lmasin, shunchaki bilishning bir vositasi bo'lib qolaveradi. Oxir-oqibat mustaqil fikrlashimiz, ma'lumotlarni

tafakkur chig'irig'idan o'tkazib yondashishimiz va to'g'ri xulosaga kelishimiz asosiy omil sifatida saqlanishini ko'rib turibmiz. Bu borada tadqiqot o'tkazayotgan mutaxassislar endi axborot va ma'lumotlarni birinchi bo'lib yetkazishdan ko'ra uni to'g'ri, ishonchli va mantiqan talqin qila olish ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganini ta'kidlaymoqda.

Shu o'rinda ishonchli deb e'tirof etilgan qator manbalardan ziyolilar va o'z sohasining mutaxassislari bildirgan fikrlarning ayrimlarini keltirib o'tish noo'rin bo'lmas. Qolaversa, aynan shu sohada tadqiqot olib borayotgan va vaziyatga bevosita guvoh bo'layotgan olimlarning fikrlarini keltirish ancha xolis taassurot uyg'otadi. Yaqinda o'qiganim g'arblilik bir olimning fikri quyidagicha: "Muammo shundaki, bizda raqamli qurilmalar va texnologiyalarning yangi dunyosida amal qiladigan hech qanday madaniy an'analar yo'q. Har qanday jamiyatga har qanday yangi moslamalar va usullarni joriy etishda, ulardan oqilona va sog'lom foydalanish qoidalari hamda an'analarini ishlab chiqish uchun 100-yildan 200-yilgacha vaqt kerak bo'ladi deb hisoblanadi. Lekin bizda bu 100-200-yil yo'q. Nima qilish kerak? Avvalo, zamonaviy bolalarning yangi me'yorda yashayotganini anglash va qabul qilish kerak. Yangi normallik bu turli sohalardagi, ba'zan esa dunyo tartibidagi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik o'zgarishlardir".

Yo'ki bu fikrga qarang:

— Gadgetlar bizga tezkor endorfinlar va dunyodagi hamma narsadan xabardorlik illyuziyasini beradi, ammo afsuski, munosabatlar va oflayn ijtimoiy hayotni "eritib" yuboradi, — deydi xorijlik prodyuser Anna Beleva. — Hatto faoliyat bevosita gadgetlar bilan bog'liq bo'lgan odam sifatida men ham oilaviy kechki ovqat paytidagi muloqot, hatto ta'tilda ham, yangiliklarni kuzatish va YouTube tomosha qilish bilan almashganini payqadim.

Yuzuvchi va faylasuf A.Korol esa "Virtual muhitga g'arq bo'lgan inson uchun oila haqiqatan ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun odamlar o'z yonida e'tibor, g'amxo'rlik va muhabbatga muhtoj yaqin kishisi borligini his qilmaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda chiroyli manzaralarni ko'ramiz. Shundan so'ng ong'siz ravishda o'z real hayotimizni salbiy qabul qila boshlaymiz. Chunki real oilaviy munosabatlar fotosuratlaridagi juftliklarni kabi mukammal emas, turmush o'rtog' esa unchalik jozibali va muvaffaqiyatli ko'rinmaydi. Natijada inson o'z jufтини tanqid qila boshlaydi va oilada kelishmovchilik yuzaga keladi", deydi.

Ahli donish va faylasuflar tafakkurni inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, narsa va hodisalarning mohiyatini, ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni chuqur anglash, bilish va umumlashtirish jarayoni sifatida hisoblaydi. Olamni tushunishda tasvirlar, his-tuyg'u va sezgi a'zolari kiritilgan o'rinlarda, albatta, aql va mantiq bilan anglash eng to'g'ri yo'l ekanini ta'kidlab kelinadi. Zero, Navoiy bobomiz aytganidek: "O'z vujudingga tafakkur aylagil..."

Rustam BOYTO'RA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Moziyga nazar

Odam bolasi yoshi ulg'aygan sari o'tmishga ko'proq murojaat qiladigan bo'lib qolar, oilasi, urug'-aymog'i, qishlog'i, yurti haqida ko'proq bilishga ehtiyoj sezar ekan. Gurunglarning birida kimdir "Mening bobom ot sotuvchi bo'lgan yoki bobomning suruv-suruv qo'yilari bor edi", deb maqtanib qolsa, unga havasiging keladi. Xo'sh, mening ajdodlarim kim bo'lgan, qanday yashagan deb o'zingizga savol berasiz. Bu savol sizni tinch qo'yamaydi, fursat topib, keksa kishilardan surishtirasiz, javob topsangiz, eshitganlaringizni bolalaringizga, nabiralaringizga so'zlab berasiz.

Ammo javob topmasangiz nima qilasiz? Maktabda o'qiydigan nabirangizning tarix kitobini titkilab ko'rasiz. Qadimgi Rim, Yunon, Misr tarixiga oid rangli suratlarni hayrat bilan tomosha qilib, tarixiy ma'lumotlarni o'qib chiqasiz. Ammo negadir qoniqmayisiz, o'zingiz istagan narsani topolmayisiz.



Qishlog'ingizning kunbotarida baland tepalik bor. U sizga bolalikdan tanish, necha bor ustiga chiqib o'ynagansiz, atrofida qo'y-qo'zi boqqansiz. Lekin bu qanday tepalik ekanini bilmaysiz. Ajdodlarimiz esa tepaliklarga Qiztepa, Jangaltepa, Bo'ritepa deb ajabtovur nomlar qo'ygan.

O'tgan asrning 90-yillari edi. Oqsogol yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad vohamiz ijodkorlari bilan uchrashuvdan so'ng e'lon qilgan "Turna qo'ngan qirlarda" maqolasida "Qashqadaryo shunday makonki, uning qirlari, tepaliklarida yonboshlab olib qissa va romanlar yaratasa bo'ladi", deb yozganini o'zim o'qiganman. Bu bilan ko'pni ko'rgan va bilgan adib vohamizning hali o'rganilmagan o'tmishiga ishora qilgandir balki.

Rahmatli Bibisora amman aytardi: — Qiziltepada qirq malak yashiringan.

Yarim kechada tuynuk ochilib, qizlar tashqariga chiqadi. Gulxan yoqib, o'yin-kulgi qiladi, tong oqarishi bilan yana makonlariga berkinib oladi. Ularni ko'rgan odam yo jinni, yoki devona bo'ladi.

Bu yillar davomida og'izdan og'izga o'tib kelgan bir afsona, albatta.

Tarixchi olim Poyon Ravshanov Qiziltepa haqida yozar ekan, bu tepalikda topilgan ashyolar orasida ayollarning o'sma qo'yadigan mitti idishlari va boshqa pardoz buyumlari borligini e'tirof etgan. Bir necha yil tepalik atrofida qo'y boqib cho'ponlik qilgan Ravshan bobo esa u yerda olov yo'lqinini ko'rganini va ovozlar eshitganini hamon gurunglarda hayratlanib so'zlab yuradi.

— Elliginchi yillarning oxiri edi. Maktabni tugatgandim. Chimqo'rg'on suv ombori qurilishi tufayli qishlog'imiz

aholisini Jonbo'zsoyga ko'chirish boshlandi. Tepaliklarni va boshqa tarixiy joylarni o'rganish uchun poytaxtdan shoshilinch ravishda qadimshunos olimlar kelib, ishga kirishishdi. Qazish ishlarida men ham ikki yil qatnashdim. Guruh rahbari Sergey Kabanov bilimdon, ajoyib inson edi. Eh, bu tepaliklardan yashik-yashik buyumlarni topib jo'natganmiz. Sopoldan yasalgan har xil uy-ro'zg'or buyumlari, loydan turli hajmdagi haykallar, qadimgi tangalar, qur'ol-aslahalar topganmiz. Jangaltepadan esa katta bir oylaning yaxshi saqlangan tobutlari chiqqandi, — deb so'zlaydi keksa muallim Hasan Ravshanov.

Esaboy qishlog'ida yashovchi Said muallimning uyida mehmonda edik. Subhatimiz aylanib, qishloq yaqinidagi Quloqlitepaga taqaldi. Said muallim bunday dedi:

— Quloqlida sir-sinoat ko'p. Ko'pchilik bu yerdan yana yuz yil ham foydalansa bo'ladigan ko'zalar, xumlar topib olib, hamon ishlab yurishibdi. Bundan tashqari, bu tepalik ichida kutubxona bo'lsa kerak. Chunki tepalikning bir tomoni daryoga tutashgan qiyalik. Qushlarning in qo'yishi uchun bexavotir joy. Qushlar uylaridan arabiyomi, forsiymi yo boshqa harflarda bitilgan varaqlarni chiqarib daryoga tashlaydi. Ba'zi odamlar bu qog'ozlarni topib olib, "tillari o'tmagach" tashlab yuborishgan. Balki yo'qolgan Ulug'bek xazinasi Ali Qushchi shu yerga berkitib ketgandir...

Kunlarning birida manbashunos olim Abdusattor Jumanazarovning 2007-yilda chop etilgan "Nasaf" kitobi qo'limga tushib qoldi. Avvalo, muallifning asami sodda, ommabop qilib yozgani diqqatimni tortdi.

Kitobning eng qiziqarli bobini "Niyoz" deb nomlangan edi. Bu tarixiy maskan

Nasaf viloyatining sharqiy qismiga qarashi bo'lgani, bu joydan bir necha olim va adib yetishib chiqqani aytilib, ularning ism-shariflari keltirilgan.

Buni qarangki, biz yuqorida tilga olgan Quloqlitepa aslida o'tmishda Niyoz deb nomlangan bo'lib, bu taniqli qadimshunos olim M.Y.Masson, rus harbiy sayyohi

B.Litvinov tomonidan 1911 va 1916-yillardagi hujjatlarda qayd etilgan. Tepalik yer sathidan 25-30 metr balandda joylashgan bo'lib, 6-7 gektar maydonni egallagan...

Ha, yurtimizning istalgan joyiga borsangiz, albatta, tariximizga daxldor joyga duch kelasiz. Bu makonlarning ko'pchiligi ilmiy jihatdan hali o'rganilmagan. Tadqiqotlar olib borilgan makonlardan esa nimalar topilgan, ularning tarixiy ahamiyati qancha, bundan ko'pchilik bexabar. Bu joylarni o'rganish, tarixini tadqiq etish vaqti yetdi. Shunday emasmi?

O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-546. 30761 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Malohat Mingboeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy